O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I

6 aprel 2026 yil. **1380-son** Toshkent sh.

Asosiy ish joyi Toshkent davlat tibbiyot universiteti bo‘lgan professor-o‘qituvchilaritomonidan 2025-yil davomida chiqarilgan ilmiy mahsulotlar (KPI) bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-sonli “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” va PQ-61-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” 517-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 22-oktabrda 3561-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi nizomlar va 2025-yil 15-dekabrdagi Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kuzatuv kengashi yig’ilishining 5-sonli bayonomasi 7-ilovasi “Toshkent davlat tibbiyot universiteti rahbarlari va xodimlari hamda professor-o‘qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari (KPI) va tartibi”ga muvofiq Toshkent davlat tibbiyot universitetining (keyingi o‘rinlarda – Universitet) barcha professor-o‘qituvchilariga 2025-yil yakuniy natijalari bo‘yicha ilmiy mahsulotlar KPI uchun (keyingi o‘rinlarda - ilmiy mahsulotlar KPI) qo‘shimcha haq to‘lash maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor Q.N. Xaitov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L. Azizova, xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor J.J. Isroilov, moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor N.L. Asqarov, ta‘lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov va barcha dekanlar (I.A.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, J.H.Tursunov, Q.E.Shomurodov, D.T.Ashurova, A.A.Nosirov, A.R.Valiev, S.S.Murtazaev, S.S.Gulyamov, E.A.Rizaev, L.I.Xasanova) fakultetlar tarkibida faoliyat olib boradigan Universitet kafedralaridagi professor-o‘qituvchilar tomonidan 2025-yil davomida chiqarilgan ilmiy mahsulotlari xolisona KPI ko‘rsatkichlari asosida baholansin.

2. Quyidagilar:

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: BK44518642

ilmiy mahsulotlar KPI ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq,

fakultetlar kesimida kafedralarning ilmiy mahsulotlarini topshirish muddati bo‘yicha jadvali 2-ilovaga muvofiq,

ilmiy mahsulotlar KPI yakuniy ma‘lumotlari bo‘yicha jadvali 3-ilovalarga muvofiq,

KPI ko‘rsatkichlarini baholash mezonlari va qo‘shimcha haq miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha kafedra mudirlari ilmiy mahsulotlar KPI haqqoniyligi uchun javobgar etib belgilansin.

4. Moliya iqtisodiy ishlari bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov, Bosh buxgalter H.N. Mardonov va Reja-moliya bo‘lim boshlig‘i A.A.Suvanovlarga:

tasdiqlangan ro‘yxat asosida qo‘shimcha haq to‘lovlarini belgilangan tartibda amalga oshirilsin;

budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan maqsadli foydalanishni ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Xodimlar bo‘limi boshlig‘i B.A.Nurmuxamedovga:

buyruq mazmunini barcha tegishli xodimlarga yetkazish yuklatilsin.

6. Ilmiy mahsulotlar KPI ishchi guruhi tarkibi mahsulotlarni xolisona ko‘rib chiqish, jarayonga shaffoflik asosida yondashish, vazifalarni sidqidildan va vijdonan, halol bajarish hamda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik vazifalari yuklatilsin.

7. Ta‘lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarovga:

mazkur jarayonda faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish yuzasidan bildirishnomani o‘rnatilgan tartibda Rag‘batlantirish komissiyasiga kiritilsin.

8. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**

VXO1874